

ICHKI TURIZMNING RIVOJLANISH TAMOYILLARI HAMDA UNING MAMLAKAT STRATEGIK TARMOG'IDA TUTGAN O'RNI

Ibrohimov Gulbegim Abdurahmon qizi

Namangan davlat universiteti

Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish fakulteti magistratura talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mamlakat turizmini rivojlantirish, uning davlat budjetiga tasir qiluvchi omillari, ichki va tashqi turizmning o'rni va ahamiyati, turli mintaqalarning joylashuvi hamda turizm obektlarining mavjudlik darajasiga qarab samarali foydalanilishi uchun istiqbolli rejalar majmui, turizm industriyasini yangi bosqichga olib chiqish, tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *kirish turizmi, chiqish turizmi, xalqaro turizm, sayyoh, turistik-rekratsion klaster, turizm darvozasi, to'siqsiz turizm, infratuzilma, xizmat ko'rsatish,*

Annotation: *In this article, the development of the country's tourism, the factoring affecting its state budget. The place and importance of internal and external tourism, the location of different regions and the set of prospective plans for the effective use of tourism of facilities, bring the tourism industry to a new level and increasing the competitiveness of the network are shown*

Keywords: *inbound tourism, outbound tourism, international tourism, tourist, tourist recreation cluster, tourism getaway, barrier-free tourism, infrastructure, service, national border.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены развитие туризма страны, факторы, влияющие на ее государственный бюджет, место и значение внутреннего и внешнего туризма в промышленность на новый уровень, а также повышение конкурентоспособности сети*

Ключевые слова: *въездной туризм, выездной туризм, международный туризм, турист, туристско-рекреационный кластер, туристический шлюз, безбарьерный туризм, инфраструктура, сервис, национальная граница*

Ichki turizmning rivojlanish tamoyillari hamda uning mamlakat strategik tarmog'ida tutgan o'rni

Dunyo taraqqiyotining rivojlanishi natijasida bugungi kunda turizm har bir davlat iqtisodiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan tarmoqlardan birga aylandi. Mustaqilligimizning dastlabki yillari sohaga etibor qilishga moddiy mablag' yetarli bo'lmagan bo'lsa, o'tgan davr mobaynida turizmga aholining sayyoxat qilishi va dam olishini ta'minlovchi oddiy infratuzilma sifatida qaraldi, ayni davrda u mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmog'i sifatida shakllanib, inson hayoti va faoliyatining anchayin sohalarini qamrab oldi. Turizm tarifini to'laroq belgilash uchun BTT turizm turlari bo'yicha quyidagi tasnifni kiritishni taklif qildi: ichki, kirish va chiqish turizmi. Turizmni tasniflashni asosiy mezon bo'lib, turistlarning

davlat chegaralarini kesib o'tishi hisoblanadi. Buning ustiga mazkur tasniflarni mamlakatlar uchun ham, bir aniq mintaqa, manzil uchun ham qo'llash mumkin.

Ichki turizm-fuqarolarning aniq bir mamlakat milliy chegarasi doirasida dam olish, dunyoni bilishga bo'lgan qiziqishni qondirish, sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanish va boshqa turistik maqsadlarni amalga oshirish uchun vaqtinchalik chiqishdir. Bu turizm turi mamlakatga valyutani olib kelmaydi. U mamlakat mintaqalarining o'rtsida daromadlarning taqsimlanishiga ta'sir etib, iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beradi. Ushbu turning rivojlanishining zarur shartlaridan biri turistlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish uchun zarur vositalarning mavjudligi hisoblanadi. Boshqa shartlar- ichki infratuzilmalar (mehmonxona, transport, mamlakat yo'llari va boshqalar) ning tegishli rivojlanganligi darajasi bn bog'liqdir.

Ichki turizm-turistlarning mamlakat ichidagi harakatlarining ko'rsatkichi bo'lib, ayrim davlatlarda rezident turistlarga chet ellardan kelgan turistlarni ham qo'shishadi boshqacha so'z bilan aytganda, davlat ichidagi barcha turistlar soni bilan ifodalanadi.

Davlat ichidagi ziyoratga boshqa davlatlardan kelib ziyorat qilgan rezident turistlarni qo'shish mumkin.

Chiqish turizm- biror bir mamlakat shaxsning o'z aholisi bo'lmagan mamlakatga sayohat qilish uchun kelishi. Uning natijasida daromad olishda horijiy valyutaning oqimi yaratiladi. Ammo bu sayyoxning fuqrolik olgan davlatiga nisbatan passivlik hisoblanadi yani mamlakat valyutasi olib chiqib ketiladi. Shu jumladan chiqish turizimi O'zbekiston uchun ham istiqbolli yo'llarni ochib berishga xizmat qilib davlat daromadiga chet el valyutasinining qo'shilishini taminlaydi.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri bu Milliy Turizmdir, dedi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - O'zbekiston turizm sohasida katta salohiyatga ega davlatdir. Mamlakatimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros ob'ektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning o'ziga xos tabiati, go'zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga binoan 2022-2026 yilgacha bo'lgan davrda "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli ustuvor yo'nalishi 16 ta maqsadni o'z ichiga olgan. Shuningdek, «O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish - maqsadi 10 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi, bular quyidagilar:

-To'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026 yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish.

-Turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish.

-Navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish.

-Toshkent shahrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash.

-Toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish.

-Zomin, Forish, Baxmal tumanlari va «Aydar-Arnasoy» ko'llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar

va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rinini yaratish.

-Samarqandni «Turizm darvozasi»ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. Turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash.

-Qoraqalpog'iston Respublikasi va Orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish. Bunda, Mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish.

-Xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish.

-Buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda rivojlanishning asosiy mezonlaridan biri sifatida turizm axborot infratuzilmasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Axborot infratuzilmasini mega darajada shakllantirish bilan Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO), Butunjahon sayohat va turizm kengashi (WTTC) kabi tashkilotlar shug'ullanadi. Makro darajada turizm axborot infratuzilmasini rivojlantirish milliy turizm ma'muriyatlari va milliy turizm tashkilotlari zimmasiga yuklangan. Mintaqaviy darajada axborot infratuzilmasi tegishli turizm sohasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, barcha xizmatlar iste'molchilariga, ham maishiy xo'jaliklarga, ham davlat organlariga, ham faoliyati muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan turizm sohasidagi firmalarga ta'sir ko'rsatadigan murakkab jarayondir. Ichki va tashqi muhitning mos omillarini shakllantirishda turizm sohasidagi korxonalar o'z faoliyatini raqamli rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarga ega.

Turizmni rivojlantirish darajasi - mamlakat, uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va aholi farovonligini tavsiflovchi parametrlardan biridir. Turizm biznesini rivojlantirishda ichki omillar ham katta rol o'ynaydi. Bu omillar sayyohlik kompaniyalarining mikro darajasida shakllanishi hisoblanadi. Ichki omillarga quyidagilar kiradi: raqamlashtirish siyosati, kompaniyaning turizm strategiyasi, eng yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, ularning rivojlanishi, kompaniya

rahbariyati tomonidan innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlarining yuqori darajasi, shuningdek, tashkiliy va innovatsiyalarni amalga oshirish va rivojlantirish uchun texnik tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. Soha rivojida bugungi kunda bir qator omillar yechimini kutayotgan bo'lib, to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin.

-turizm infratuzilmasini talab darajasida emasligi

-ichki tashuvlarning transport harajatlarining yuqoriligi

-sayyohlarning joylashtirish vositalari, joylari va dam olish maskanlari yetishmasligi

-ko'plab turistik obyektlari holatlarining qooniqarsizligi

-turizm infratuzilmasining barcha sektorlarda xizmat ko'rsatishning sifati xalqaro talablardan past darajada ekanligi

-mamlakatning ayrim hududlarida sifatli yo'llar infratuzilmasining yo'qligi

-hududlarimizda va xorijda sayyohlik imkoniyatlarimiz haqida ma'lumotlarning yetarli emasligi.

Turizm rivojlanishidagi mavjud kamchiliklarning tahlili tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, turizm milliy iqtisodiyotning yuqori daromad keltiradigan, aholi turmush darajasini yaxshilovchi, tarmoq sifatida qaraldi.

O'zbekiston respublikasining barcha mintaqalari katta turistik salohiyatga ega, lekin undan foydalanish darajasi, aytish mumkinki, ko'p hollarda, mintaqaviy turizmning innovatsion rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning lavozimga kirishganligining ilk kunlaridan turizm tarmog'i mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishiga aylanishi xususida gapirib o'tgan edilar. 2016-yil 2-dekabrda "Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-2661-sonli farmoni turizmni yanada faolligini oshirish borasidagi dasturul-amal bo'ldi. Unda turizm infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish, viza berish, tartib-tamoillarini soddalashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasi huzurida turizm masalalari bo'yicha muvofiqlashtirish kengashini tashkil etish to'g'risida. Muvofiqlashtiruvchi kengashning tashkil etilishi turli vazirliklar, idoralar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida turizmni rivojlantirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish, shuningdek mamlakatimizda turizmni rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni tezkorlik bilan ko'rib chiqish va hal etish imkonini beradi.

Turizmni innovatsion rivojlantirish yangiliklari bilan farqlanadigan va ijobiy burilish yasovchi tizimli tadbirlaridanligi hisobga olinadigan bo'lsa, turizmدا innovatsiyalar o'ziga xos yondashuvni ishlab chiqishni, yangi resurslar izlab topishni taqozo etmoqda.

Turizm sohasida innovatsion faoliyat yangi mahsulot yaratish yoki mavjud mahsulotni almashtirish, transport, mehmomxona va boshqa xizmatlarni takomillashtirish yangi bozorlarni o'zlashtirish, yetakchi axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni va tashkiliy –boshqaruv faoliyatining zamonaviy shakllarini joriy etishga yo'naltirilgan.

Yuqorida e'tiborga olib ishga xulosa qiladigan bo'lsak, turizm faoliyatining tashqi muhitini tahlil qilishda yuqorida sanab o'tilgan, raqamli iqtisodiyot va yangi mahsulotlarni

shakllantirishni amalga oshirish va keyinchalik rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarga katta e'tibor qaratish lozim. Dunyo aholisining ko'pchilik qismi bugungi kunda sayohat obyektlarini asosan axborot xizmatlari orqali tanlab xizmat ko'rsatish faoliyati bilan o'zi yashab turgan mamlakatning o'zida tanishmoqda. Shunday qilib turizm sohasidagi innovatsion faoliyat yangi yoki mavjud mahsulotni yaratish, transport, mehmonxona va boshqa xizmatlarni yaxshilab, yangi bozorlarni o'zlashtirish, ilg'or axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini va tashkiliy boshqaruv faoliyatining zamonaviy shakllarini joriy etishga qaratilgan Zero turizm-bu elementlari o'zaro iyerarxik aloqalar va munosabatlar tizimi orqali bog'langan, provard natijalarga erishishda bevosita tashrif buyuruvchilarning ishtiroki bilan tavsiflanadigan, tarmoqlararo majmuaning ko'p qirralifunksional tuzilmasi negizida shakllanadigan, tashqi muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega ochiq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Millat taraqqiyoti yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz Sh.M.Mirziyoyev 2017
2. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Sh.M.Mirziyoyev 2018
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni
4. G'.Hasanov E., Ruziyev B., Akramov S. TURIZMDA DESTINATSIYA //Scientific progress. - 2022. - T. 3. - №. 1. - C. 143-150.
5. Djuraevna R. M. et al. Development Prospects for Digital Economy Development in Uzbekistan //Academic Journal of Digital Economics and Stability. - 2021. - C. 58-64
6. Yakubova Shamshinur Shukhratovna. "Innovative Approaches for Modeling the Impact of Monetary Policy on Economic Development." Academic Journal of Digital Economics and Stability (2021): 311-318.
7. Turizm bozori menejmenti M.T.Aliyeva 2013 yil
8. To'xliyev N, Abdullayeva T. Менеджмент и организация в туризме Узбекистана .-т.Гос.науч.изд.во 367 с O'zbekiston milliy ensiklopediyasi
9. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgust "Turizm to'g'risida"gi qonuni
10. Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda "Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-2661-sonli farmoni
11. Rural tourism in Europe: Experiences, development and perspectives. WTO .2004
12. Маринин М.М туристические формальности и безопасность в туризме. 2008
- 13, Djuraevna R. M. et al. Development Prospects for Digital Economy Development in Uzbekistan //Academic Journal of Digital Economics and Stability. - 2021. - C. 58-64

14 Yakubova Shamshinur Shukhratovna. "Innovative Approaches for Modeling the Impact of Monetary Policy on Economic Development." Academic Journal of Digital Economics and Stability (2021): 311-318.